ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Folklorda til va madaniyat aloqadorligi (o‘zbek xalq ertaklari misolida) 75

МУНДАРИЖА

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Диний услуб фразеологияси 80

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asarida dialektal diskursiv shaxsning lingvopragmatik talqini 86

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
“Devonu lug‘otit-turk” oziq-ovqat nomlarini qiyosiy o‘rganish uchun asos sifatida..... 90

KO‘CHIMOVA SHAHLO NURIDDIN QIZI
Yuridik matnlarning ekstralingvistik omillari va ularning mazmun shakllanishidagi o‘rni..... 93

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ, НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА
Икки дарё оқиб ўтди..... 97

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 103

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация
тюркского эпоса в XXI веке… 105

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 109

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской
малой прозы в постсоветскую эпоху… 112

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 115

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik..... 119

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati… 122

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 126

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 129

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 131

FERUZA SULTONQULOVA
Usmon Azim she’riyatida Boysun yetakchi motiv sifatida… 134

KIRGIZOVA GULNOZA MAMADALIYEVNA
Iqbol Mirzo she’riyatida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi… 137

QAHHAROVA DILAFRO‘Z ABDUG‘AFFOROVNA
Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar… 140

MAMATQULOV BOTIR
Nazar Eshonqul hikoyalarida shaxs fojiasi talqini..... 143

ABDUNAZAROV O‘TKIR
Bolalar adabiyotida ijodiy izlanishlar (Nosir Fozilov asarlari misolida) 149

TA’LIM

NODIRA JALOLOVA
Kommunikatsion menejment tushunchasi va uning funksiyalari 155

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"DEVONU LUG'OTIT-TURK" OZIQ-OVQAT NOMLARINI QIYOSIY O'RGANISH UCHUN ASOS SIFATIDA

Muhsinjonova Shirinoy Asliddin qizi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs tayanch doktoranti
Shirinmuhsinjonovagmail@.com

Barchamizga ma'lumki, til har bir xalqning o'lmas qadriyati, milliy merosi, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan muqaddas an'ana sanaladi. Uni asray bilish esa har bir elatning oldida turgan ulkan mas'uliyat hisoblanadi. Tilni asrash, uni kelgusi avlodga yetkazish uchun qator ishlar amalga oshirilishi, ularning amaliyotga tatbiq etilishi, albatta, o'zining samarasini ko'rsatmay qolmaydi. Tildagi lug'at qatlami, grammatik qoidalar kabi muhim jihatlar tilni yanada kengroq tahlil va tadqiq etishda yordam berishi shubhasizdir.

Tilda mavjud so'zlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish til lug'at boyligining yanada boyishiga yordam beradi. Bundan tashqari, hozirgi kunda nutqimizda qo'llanilayotgan til birliklarining bizgacha qanday ko'rinishga ega ekanligi xususida ma'lumot berishda biz til tarixiga oid ilmiy izlanishlardan boxabar bo'lmog'imiz lozim. Tilimiz xazinasidan o'rin olgan taom nomlari o'zbek leksikologiyasining tadqiq etish manbasi hisoblanadi. Leksikologiya til sohasining o'ziga xos muhim sathi hisoblanib, bugungi kunga qadar ushbu yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bundan tashqari, leksikografiya sohasi ham leksikologiyaga yondosh soha sifatida vujudga kelib, tilning keng miqyosda tatbiq qilinishida foydalanilmoqda.

Tildagi mavjud so'zlar xilma-xil bo'lib, ularni ma'lum sinflarga birlashtirgan holda o'rganish til tadqiqiga yanada osonroq yondashuvimizga xizmat qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlariga terminologik jihatdan yondashuv ularning mohiyatini yanada teranroq ochib berishga yordam beradi. Biz tanlagan ushbu mavzu doirasida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida qo'llanilgan taom nomlarini leksik-semantik jihatdan tahlil qilish, ularning hozirgi o'zbek tilida saqlanish darajasini belgilash rejalashtirilgan.

S. Mutallibov "Devon" quyidagicha ta'rif keltirib o'tadi: "Ma'lumki, Mahmud Koshg'ariyning kamtarlik bilan lug'at deb atagan bua sari yolg'iz bu kungi ma'nodagi lug'atgina emas, balki shu bilan birga, o'sha davr tilining fonetika, morfologiya, leksika va dialektologiyasini mukammal izohlab bergan to'la ma'nodagi filologik asar, bebaho bir qomusdir. Mahmud Koshg'ariy o'z asarini ko'p yillar yurtma-yurt yurib, xalq og'zidan to'plagan materiallar asosida tuzdi. Bu usul bir tarafdan unga o'sha davr tilidagi butun so'zlarni va har qanday so'z turlarini mukammal qamrab olishga imkon bergan bo'lsa, ikkinchidan, bu materiallar o'z navbatida unga o'sha davr tilining har bir sohasiga doir boy namunalar to'plami bo'lib ham xizmat qildi. Mahmud Koshg'ariy so'z ma'nosini izohlar ekan, yo'l-yo'lakay so'zlarning har qanday grammatik xususiyatlari va u so'zlarning qaysi qabilaga mansubligi haqida ham ma'lumot bera boradi, umumlashtirilgan qoidalar tuzadi". Demak, Mahmud Koshg'ariy birgina tilshunoslik sohasida amaliy ish olib boribgina qolmay, balki xalqda mavjud deyarli barcha ilmlarga oid atamalarni o'z "Devon"ida yig'ishga harakat qilgan qomusiy olimdir. Asardan o'rin olgan grammatik qoidalar ham aynan ilk tilshunoslikka doir qoidalar sifatida til tarixidan muqim o'rin egalladi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Tarixdan ma'lumki, XI asrga kelib, qator faoliyat turlari, xususan, savdo-sotiq ishlari hamda hunarmandchilik avvalgi davrga nisbatan anchayin faollashdi. Shu bilan birgalikda, yuqorida nomlari qayd etilgan faoliyat turlari o'laroq xalqlar orasida ham diplomatik aloqalar anchayin kuchayib bordi, buning natijasida ular o'rtasida savdo aloqalari, diplomatik kelishuvlar, yoinki, so'zlarning birinchi xalqdan ikkinchi xalqqa kirib borishi ham yuzaga kelganligini "Devonu lug'otit-turk" asari orqali anglashimiz mumkin bo'ladi[1].

"Devonu lug'otit-turk"dan o'rin olgan so'zlar ham Qoraxoniylar davriga oid bo'lgan lug'at tarkibidan dalolat qilib, unda turfa birliklar, jumlada, hunarmand-

[1] Дадабоев Ҳ. "Девону луғотит-турк"нинг тил хусусиятлари. – Т.: ТДШИ, 2017. – Б. 133.

chilikka oid atamalar, savdo-sotiq, oziq-ovqat nomlariga doir bo‘lgan va boshqa ifodalar o‘rin olgan.

“Devon”dagi oziq-ovqat mahsulotlari nomlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, lug‘at so‘z boyligida mavjud taom nomlari mazmuniy jihatdan xilma-xil ekanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin[1]. Ularning tuzilishidagi ayrim o‘zgarishlar tarixiy taraqqiyot bosqichlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ayrim taom nomlari hozirda to‘liq o‘z shaklini saqlab ulgurgan bo‘lsa, ayrimlari arxaik shaklda mavjud bo‘lishi, ba’zilari esa tarixiy so‘zlar qatoridan o‘rin olganini ko‘rishimiz mumkin. Shu jihatdan lug‘atda qo‘llanilgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlarini davr nuqtayi nazaridan uch guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

I. Istorizm(tarixiy so‘z)larga aylangan taom nomlari - asardan o‘rin olgan, lekin bugunga qadar yetib kelmagan, iste’moldan chiqqan leksik birliklar.

II. Arxaiklashgan - mazmunini saqlagan holda o‘z o‘rnini boshqa so‘zga “bo‘shatib” bergan so‘zlar.

III. XI-XII asrdan to hozirgi o‘zbek tiliga qadar o‘z shaklini ham, mazmunini ham saqlagan taom mahsulotlari nomlari.

Taom nomlarining davr nuqtayi nazaridan yuqoridagi uch guruhga binoan o‘rganilishi mavzuning yanada kengroq ko‘lamda yoritilishiga yordam beradi. Birinchi guruhdagi tarixiy ko‘rinish kasb etgan taom nomlari o‘z mazmuni hamda o‘z shaklini bugungi kunda butkul yo‘qotgan taom nomlarini ifodalovchi terminlar hisoblanib, ular haqida faqat tarixiy manbalar orqali ma’lumot olish mumkin bo‘ladi. “Devon”da qo‘llangan tarixiy ko‘rinish kasb etgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlari misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: *uwa, awzuri, qag‘ut* va h.z.

Arxaiklashgan taom nomlari borasida to‘xtalar ekanmiz, ularning “Devon”da salmoqli o‘rin egallaganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bunday turdagi oziq-ovqat mahsulotlari nomlari o‘z mazmunini bugungi kunda saqlagan bo‘lsa-da, biroq o‘z o‘rnini boshqa leksemaga bo‘shatib bergan. Jumladan, *yun et* ifodasini oladigan bo‘lsak, bu birlik hozirda nutqimizda qo‘llanmaydi, o‘z o‘rnini boshqa leksikaga bo‘shatib bergan, ya’ni jigarga yaqin yerda joylashgan go‘sht. Yoki bo‘lmasa, *soğut* leksemasi aks ettirgan ma’no hozir xasip so‘zi bilan ifodalanadi.

“Devon”da qo‘llanilgan uchinchi turkum so‘zlar muayyan shaklda hozirgi kunda ham saqlanib qolgan bo‘ladi. Shakl va mazmun saqlanishi so‘zning bugungi kunga qadar yetib kelishidagi muhim omil vazifasini bajaradi, jumladan, *tutmoch* leksemasi eski turkiy tilda faol qo‘llanilgan, bugungi kunda ham tilimizda mavjudligi bilan ahamiyatlidir; *et* so‘zi ham hozirgi o‘zbek tilida xuddi eski turkiy tilda qo‘llanilgani kabi bir xil ko‘rinishga ega.

“Devon” dan o‘rin olgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlari tarixiy nuqtayi nazardan Qoraxoniylar davri bilan bevosita aloqador hisoblanib, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik kabi faoliyatlar natijasi o‘laroq yuzaga kelgan. Ta’kidlash lozimki, asarda taom nomlarining ifodalanishi turfalikni kasb etishi bilan birgalikda, o‘sha davr nutqiy madaniyatidan ham darak beradi. Jumladan, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Qoraxoniylar davrida taom tortish an’analari mavjud bo‘lib, ularda “birinchi taom”, “ikkinchi taom” kabi tushunchalar aks etgan[2]. Bu jihat “Devon”ida yaqqol ifodasini topgan bo‘lib, dastlabki tortiladigan taom nomi asarda *tutğuč*[3] termini bilan yuritilgan. *Sufra* terminining uch ma’nosi mavjud ekanligiga guvoh bo‘lamiz, chunonchi:

a) *musofir uchun beriladigan taom (urf-odat tarzida;*

b) *taom yoziladigan, teridan qilingan dasturxon;*

c) *bir qarindosh boshqa qarindoshining qoshiga uzoqdan kelib, qaytish chog‘ida qarindosh, yaqinlarini chaqirib, beriladigan tortiq*[4].

Biz uchun “sufra” leksemasining birinchi ma’nosi muhim hisoblanadi. Yo‘l kezayotgan tanish kishilarga yoki musofirlikda yurgan insonlarga chaqirib hadya qilinadigan taom nomi sifatida *tozğu*[5] so‘zi qo‘llanilgan. Bundan tashqari, Qoraxoniylar davri madaniyatida “*ruxsat oshi*” ifodasi ham mavjud bo‘lib, u *bošuğ aši*[6] birikmasi yordamida ifodalangan.

Aza marosimiga daxldor taom nomlari ham asardan o‘rin olgan: *basan – o‘lik ko‘milgach beriladigan taom*[7] hamda o‘likni ko‘mib qaytganlar uchun beriladigan taom nomi sifatida “*yoğ*[8]” istilohi eski turkiy tilda qo‘llangan.

Wikipedia onlayn lug‘atida *taom* hamda *ovqat* leksemalariga quyidagicha ta’rif beriladi:

Taom – arabcha yemish, ovqat, yegulik.

[1] Дадабоев Ҳ. Кўрсатилган манба. – Б. 133.
[2] Дадабоев Ҳ. Кўрсатилган манба. – Б. 133.
[3] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017. – B 180.
[4] Mahmud Koshg‘ariy. Ko‘rsatilgan asar. – B 150.
[5] Mahmud Koshg‘ariy. Ko‘rsatilgan asar. – B 170.
[6] Mahmud Koshg‘ariy. Ko‘rsatilgan asar. – B 150.
[7] Mahmud Koshg‘ariy. Ko‘rsatilgan asar. – B 160.
[8] Mahmud Koshg‘ariy. Ko‘rsatilgan asar. – B 372.

Pishirilgan, yeyish-ichish uchun tayyorlangan narsa, ovqat. Taom tuz bilan, tuz o'lchov bilan(maqol)[1].

Ovqat – arabcha oziq-ovqat, yegulik, ozuqa, yem. Bu so'z tuzilish jihatidan ko'plikdagi so'z hisoblanib, o'zbek tiliga metateza yo'li bilan o'zlashgan: avqot<aqvot.

Ovqat:

I. *rizqlanish, yeyish-ichish uchun tayyor narsa, yemish, taom, yemak. Ta'mli ovqat. Issiq ovqat. Yengil ovqat;*

II. *uy hayvonlarining yem-xashagi, oziq, ozuqa. Mollarga ovqat solmoq;*

III. *yeyich, ichish, tirikchilik uchun darkor narsalar; oziq. Fuod afandi bizga mehribonchilik qilib, ovqatimizga qarashib turdi. M. Ismoiliy, "Farg'ona tong otguncha"*[2].

Demak, *taom* va *oziq-ovqat* leksemalari keng ma'noga ega bo'lib, faqatgina tayyorlash yo'li bilan hosil qilinadigan yeyish mahsulotlari emas, balki tabiiy mahsulotlar, meva, sabzavot yoinki ichimliklar ham ularning tarkibidan joy olganligi barchamiz uchun birdek ahamiyatlidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Devonu lug'otit-turk" asarida ishtirok etgan taom nomlariga doir birliklarning tarixiy asoslarini o'rganish ularning hozirgi o'zbek tilida qay darajada voqelanishini ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun asos vazifasini bajaradi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida qo'llangan taom nomlariga oid birliklarning qiyosiy-tarixiy xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Asarda ishtirok etgan oziq-ovqat mahsulotlariga oid birliklarning hozirgi o'zbek tilida qay darajada voqelanish asoslariga ilmiy nuqtayi nazardan baho berish sohada olib borilayotgan tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajaradi.

Аннотация. В данной работе с лингвистической точки зрения исследуются сравнительно-исторические характеристики единиц, связанных с названиями продуктов питания, используемых в произведении Махмуда Кашгари «Девону луготит-турк». Основой для дальнейших исследований в данной области служит научная оценка степени присутствия единиц, связанных с продуктами питания, включенными в произведение, в современном узбекском языке.

Abstract. This thesis studies the comparative and historical characteristics of the units related to the names of food used in Mahmud Kashgari's work "Devonu lug'otit-turk" from a linguistic point of view. A scientific assessment of the extent to which the units related to food products included in the work are present in the modern Uzbek language serves as a basis for research in this field.

[1] Taom - Vikipediya (wikipedia.org)

[2] Oziq-ovqat - Vikipediya (wikipedia.org)